



**TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA TRANSFORMATSIYA  
JARAYONLARI VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
(“KAPITALBANK” ATB MISOLIDA)**

*Ro‘ziqulov Dilshod*

*O‘zbekiston Respublikasi*

*Bank-moliya akademiyasi tингловчиси*

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida transformatsiya jarayonlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. O‘zbekistondagi “Kapitalbank” ATB misolida bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish hamda innovatsion yechimlardan foydalanishning amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, bank faoliyatida transformatsiya strategiyalarining samarali tashkil etilishi, raqobatbardoshlikni ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari transformatsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kompleks yondashuv, zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish va inson kapitalini rivojlantirish muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

*Kalit so‘zlar* Tijorat banklari, transformatsiya jarayonlari, samaradorlik, raqamli texnologiyalar, innovatsion yechimlar, “Kapitalbank” ATB, bank menejmenti, raqobatbardoshlik.

*Abstract:* This article examines the transformation processes in the activities of commercial banks and explores ways to improve their efficiency. Using the case of “Kapitalbank” JSCB, the study analyzes the implementation of digital technologies, the optimization of management processes, and the integration of innovative solutions in the banking sector. Particular attention is paid to the role of transformation strategies in enhancing competitiveness, ensuring sustainable development, and increasing economic efficiency. The findings suggest that



*successful transformation in commercial banks requires a comprehensive approach, the effective integration of modern technologies, and the development of human capital as a key driver of innovation and productivity.*

**Keywords:** Commercial banks, transformation processes, efficiency, digital technologies, innovative solutions, “Kapitalbank” JSCB, bank management, competitiveness.

### Kirish:

Bugungi kunda bank tizimi mamlakat iqtisodiy hayotining eng muhim sohalaridan biri sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, tijorat banklari iqtisodiyotning moliyaviy asoslarini mustahkamlash, xo‘jalik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi investitsion loyihalarni moliyalashtirish va aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda beqiyos o‘rin tutadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida bank tizimi faoliyatini tubdan takomillashtirish, uni zamonaviy talablarga moslashtirish, xalqaro standartlarga integratsiya qilish, shuningdek raqamli iqtisodiyotga mos bo‘lgan yangi xizmatlarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib bormoqda. Shu jihatdan qaraganda, tijorat banklari faoliyatida transformatsiya jarayonlarini tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Transformatsiya jarayoni mohiyatan bank faoliyatining barcha yo‘nalishlariga ta’sir etuvchi chuqur tizimli o‘zgarishlarni anglatadi. U bankning tashkiliy tuzilmasi, boshqaruvi tizimi, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, kadrlar malakasini oshirish va mijozlar ehtiyojlarini qondirish kabi turli yo‘nalishlarni qamrab oladi. Jahon tajribasidan ma’lumki, transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshira olgan banklar moliya bozorida yetakchi o‘rinni egallaydi, xizmatlar sifati va turlarini kengaytiradi, mijozlar ishonchini oshiradi hamda moliyaviy barqarorlikka erishadi. Shu bilan birga, transformatsiyani amalga oshirmagan yoki uni samarasiz olib borgan banklar bozordagi raqobatga bardosh bera olmaydi va mijozlar ulardan yuz o‘giradi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda qabul qilingan qaror va farmonlarida bank tizimida tub islohotlar o‘tkazish, tijorat banklarini modernizatsiya qilish, ularning boshqaruv tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, davlat ulushi mavjud banklarni bosqichma-bosqich xususiyashtirish, shuningdek, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu islohotlarning barchasi tijorat banklari faoliyatida transformatsiya jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, ushbu mavzuni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir.

Transformatsiya jarayonlari amalda bir nechta yo‘nalishda amalga oshirilmoqda. Birinchidan, moliyaviy transformatsiya orqali banklarning kapitali diversifikatsiya qilinmoqda, aktiv va passivlarni boshqarish tizimi takomillashtirilmoqda. Ikkinchidan, raqamli transformatsiya jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalari, katta ma’lumotlar bazalari, mobil ilovalar va onlayn-bank xizmatlari keng joriy qilinmoqda. Uchinchidan, institutsional transformatsiya banklarning boshqaruv tizimi va korporativ madaniyatini xalqaro tajribaga mos ravishda qayta shakllantirishni ko‘zda tutadi. To‘rtinchidan, xizmatlar transformatsiyasi mijozlarga yanada qulay, tezkor va individual yondashuv asosida xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yadi.

Bu jarayonlarda bir qator muammolar ham mavjud. Raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ayrim banklarda transformatsiyaning faqat tashqi ko‘rinishda amalga oshirilayotgani, yuqori malakali kadrlar yetishmasligi, xalqaro standartlarga to‘liq moslashmaganlik hamda moliyaviy resurslarning cheklanganligi transformatsiya samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, transformatsiya jarayonlarini faqatgina yangi texnologiyalarni joriy etish sifatida emas, balki bank faoliyatini to‘liq optimallashtirish, samarali boshqaruv tizimiga o‘tish va mijozlar ehtiyojini to‘liq qondirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuasi sifatida ko‘rish zarur.

O‘zbekiston bank tizimining yetakchi subyektlaridan biri bo‘lgan “Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki transformatsiya jarayonlarining faol ishtirokchisidir. Bank o‘z faoliyatida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etib



kelmoqda, filiallar tarmog‘ini modernizatsiya qilish, raqamli xizmatlarni kengaytirish, yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Mazkur bankning transformatsiya jarayonlari nafaqat o‘z faoliyatini yaxshilash, balki butun moliya bozorining rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu boisdan, “Kapitalbank” ATB misolida transformatsiya jarayonlarini o‘rganish ilmiy jihatdan katta qiziqish uyg‘otadi.

Ilmiy tadqiqot doirasida transformatsiya jarayonlarini o‘rganish orqali bir nechta vazifalar hal qilinadi. Avvalo, tijorat banklari faoliyatida transformatsiyaning nazariy asoslari yoritiladi, ularning mohiyati va mazmuni ochib beriladi. Keyinchalik, O‘zbekiston bank tizimidagi transformatsiya jarayonlarining amaliy jihatlari tahlil qilinadi, “Kapitalbank” ATB misolida transformatsiyaning samaradorligi baholanadi va uni yanada takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari ilmiy jihatdan bank-moliya tizimi bo‘yicha bilimlarni boyitadi, amaliy jihatdan esa banklar uchun muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, transformatsiya jarayonlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bank xodimlarining malakasiga, korporativ madaniyatning yuksalishiga, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining joriy qilinishiga ham bog‘liq. Bu jarayonlarda inson kapitalini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlarning yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyati, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash tajribasi va mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalari transformatsiya samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sirasiga kiradi.

Jahon miqyosidagi iqtisodiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan banklar nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro moliya bozorlarida ham mustahkam o‘rin egallaydi. Shu jihatdan qaraganda, O‘zbekiston tijorat banklari ham raqobatbardoshlikni ta’minalash uchun transformatsiya jarayonlarini tezkor va samarali amalga oshirishi zarur. Bu jarayonlarda banklarning moliyaviy ko‘rsatkichlari, mijozlar bazasi, xalqaro hamkorlik aloqalari ham alohida rol o‘ynaydi.



Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari faoliyatida transformatsiya jarayonlarini chuqur o‘rganish, ularning samaradorligini baholash va uni oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biridir. “Kapitalbank” ATB misolida olib boriladigan tahlillar orqali transformatsiyaning amaliy jihatlari aniqlanadi, uning ijobiy va salbiy tomonlari ochib beriladi va natijada bank faoliyatini yanada samarali tashkil etish yo‘llari ishlab chiqiladi. Mazkur tadqiqot nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki bank tizimida faoliyat yuritayotgan amaliyotchilar uchun ham qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Shu tarzda, transformatsiya jarayonlarini o‘rganish orqali mamlakatimiz bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro moliya bozoriga integratsiya qilish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shish imkoniyati yuzaga keladi.

#### Takliflar:

Tijorat banklari faoliyatida transformatsiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun, avvalo, bank boshqaruvi tizimida strategik yondashuvni kuchaytirish va jarayonlarni tizimli ravishda tashkil etish zarur. Transformatsiya faqat tashqi ko‘rinishdagi islohot emas, balki bankning barcha bo‘g‘inlarini qamrab oladigan kompleks yangilanish sifatida qaralishi lozim. Shu maqsadda banklarda innovatsion boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish, xalqaro tajribani chuqur o‘rganib, milliy sharoitga moslashtirish, uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga asoslangan yondashuvlarni tatbiq etish muhimdir.

Transformatsiya jarayonlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida raqamli infratuzilmani rivojlantirish masalasi turadi. Banklar zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo‘llash, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar bazasi imkoniyatlaridan foydalanish orqali xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishi, operatsion xarajatlarni kamaytirishi va yangi mijozlarni jalg qilishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli xizmatlarning hududlar bo‘yicha teng taqsimlanishini ta’minalash, internet qamrovini kengaytirish va kiberxavfsizlikni mustahkamlash alohida e’tibor talab etadi.

Bank xodimlarining malakasini oshirish transformatsiyaning eng muhim shartlaridan biridir. Zamonaviy bank xizmati faqat texnologik yangiliklarga emas,



balki inson kapitaliga ham asoslanadi. Shu bois, bank xodimlari uchun doimiy malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish, ularni xorijiy tajribalar asosida qayta tayyorlash va yangi ko‘nikmalar bilan ta’minlash zarur. Bu nafaqat transformatsiya samaradorligini oshiradi, balki mijozlar bilan ishlash sifatini ham yaxshilaydi.

Transformatsiya jarayonlarida mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Banklar mijozlarga individual yondashuv asosida xizmat ko‘rsatishi, ularning ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib moslashuvchan mahsulotlarni taqdim etishi kerak. Shu bilan birga, mijozlar fikrini muntazam o‘rganib borish, ulardan kelib tushadigan taklif va shikoyatlarni tezkor hal etish, sifatli “feedback” mexanizmini joriy etish transformatsiya jarayonining muhim qismi bo‘lishi lozim.

Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish ham transformatsiya samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Banklar investitsion loyihalarni moliyalashtirishda resurslarni diversifikatsiya qilishi, risklarni samarali boshqarishi va kapitalning optimal tuzilishini shakllantirishi zarur. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va moliyaviy bozor imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish bank transformatsiyasi samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, banklarning xalqaro tajribaga moslashuvini jadallashtirish zarur. Jahonning yetakchi banklari bilan hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro standartlarga mos moliyaviy hisobotlarni joriy etish, ilg‘or boshqaruva mexanizmlarini tatbiq etish orqali milliy bank tizimining raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi. Bu esa nafaqat ichki bozor, balki xalqaro moliya bozorida ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari. – Toshkent, 2017–2024 yy.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “O‘zbekiston bank tizimi to‘g‘risida”gi yillik hisobotlar. – Toshkent, 2019–2023 yy.



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “Bank tizimini isloq qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Karimov, A. A. Bank ishi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
5. Rustamov, B. Iqtisodiy islohotlar sharoitida bank tizimida transformatsiya jarayonlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Stiglitz, J. E. Globalization and Its Discontents. – New York: W.W. Norton & Company, 2002.
7. Drucker, P. Innovation and Entrepreneurship. – London: Routledge, 2015.
8. Porter, M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 2008.
9. Mishkin, F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – Pearson Education, 2019.
10. OECD. Digital Transformation in Financial Sector. – Paris: OECD Publishing, 2021.
11. World Bank. Financial Sector Development Report. – Washington, 2020.